



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASINING O'RNI VA ROLI

Mamatqulov Shoxrux Qudratjon o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6558882>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01- may 2022

Ma'qullandi: 10- may 2022

Chop etildi: 15- may 2022

KALIT SO'ZLAR

taraqqiyot strategiyasi, xalqchil davlat, mahalla instituti, elektron davlat xizmatlari, ixchamlashtirish, elektron hukumat, nomarkazlashtirish, hokim yordamchisi instituti.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishga qaratilgan Harakatlar strategiyasining uzviy davomi hisoblanmish yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga muvofiq mamlakatimizda amalga oshiriladigan davlat boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan masalalar asosiy o'rin olgan

Mamlakatimizda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan yangi bosqichdagi islohotlar o'z mevalarini bera boshlab, O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda. Mazkur yangilanishlar davlat boshqaruvi tizimining samadorligini oshirishga qaratilgani bilan ham alohida ahamiyatga ega. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishga qaratilgan Harakatlar strategiyasini uzviy davomi hisoblanmish Taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi. Ushbu tarixiy hujjat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni bilan tasdiqlandi.

Bugun esa yangi taraqqiyot davri ostonasida turibmiz. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining qabul qilinishi tom ma'noda tarixiy voqea bo'ldi. Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi bo'lgan ushbu tarixiy hujjatda yaqin va o'rta istiqbolda O'zbekistonning taraqqiyot tendensiyalari, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini kompleks rivojlantirish yo'nalishlari aniq belgilab berilgan.

Davlat boshqaruvida biz uchun nisbatan yangi, lekin ko'plab rivojlangan demokratik mamlakatlarda amal qilayotgan "Davlat xalqqa xizmat ko'rsatishi shart" g'oyasini tatbiq etishni nazarda tutuvchi "Xalqchil davlat" milli y dasturi ishlab chiqiladi, "Davlat xizmatlari to'g'risida"gi qonun qabul qilinadi.



Taraqqiyot strategiyasining ahamiyati shundaki, uning ishlab chiqilishida mavjud muammolar e'tiborga olindi, yechimini kutayotgan dolzarb vazifalar aks ettirildi. Eng muhimi, hujjatning ishlab chiqilishida xalqimiz faol ishtirok etdi. Tom ma'noda, xalqimiz hammuallifligida ishlab chiqildi, deyish mumkin. Hujjatda "Inson qadri uchun" degan tamoyilni hayotda to'la ro'yobga chiqarish vazifasi yaqqol aks etgan. Taraqqiyot strategiyasida yettita ustuvor yo'nalish bo'yicha "Inson qadri uchun — 100 ta maqsad" belgilab olingan. Strategiyaning birinchi yo'nalishida 12 ta maqsad, 42 ta topshiriq bo'lib, ularning har biri inson qadrini ulug'lashga xizmat qiluvchi xalqchil davlat barpo etish, aholi uchun farovon turmush sharoiti yaratishda g'oyat muhim sanaladi.

Birinchi yo'nalishdagi ilk maqsad mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish vazifasi bo'lib, aynan ushbu vazifaning ustuvor maqsad sifatida belgilangani bejiz emas. Zero, mahalla aholiga, oilalarga eng yaqin bo'g'in sanaladi. Shu jihatdan so'nggi yillarda mahalla infratuzilmasini rivojlantirish, mahallabay ishlash tizimini joriy etish bo'yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Joriy yildan mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish maqsadida hokim yordamchisi instituti joriy etildi. Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, moliyaviy mustaqilligi, bandlikni ta'minlash, fuqarolar bilan muloqot qilish bo'yicha manzilli ishlar amalga oshirilmoqda. Endilikda bu boradagi ishlar yangicha yo'nalishda davom ettiriladi. Bu borada, avvalo, mahallaning faol modeli yaratiladi.

Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarini hududlarda mavjud muammolarni hal qilishdagi asosiy bo'g'inga aylantirish vazifasi birinchi yo'nalishning ikkinchi maqsadi sifatida belgilangan.

Aytish kerakki, so'nggi yillarda mahalliy Kengashlar ijro organlaridan so'rovlar o'tkazish, qarorlar bo'yicha fikrlar bildirish, byudjetni shakllantirish va nazorat qilish kabi masalalarda faol ishtirok etmoqda.

Endilikda joylarda Taraqqiyot strategiyasining hududiy dasturlari ishlab chiqiladi. Olti milliondan ortiq ish o'rinlari yaratish bo'yicha tarmoq va hududlar dasturlari bo'yicha hisobot eshitish tizimi yo'lga qo'yiladi. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish, mahalliy byudjetlarni shakllantirish va nazorat qilish yuzasidan Kengashlarni asosiy bo'g'inga aylantirish bo'yicha ishlar tashkil etiladi. Senat qo'mitalari bilan mahalliy Kengashlar doimiy komissiyalari faoliyati muvofiqlashtiriladi. Bu chora-tadbirlar parlament nazoratini kuchaytirish orqali davlat organlari faoliyati ochiqqligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Uchinchi maqsad — mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining institutsional asoslarini zamon talablariga moslashtirishni ham davrning o'zi taqozo etmoqda. Taraqqiyot strategiyasida bu borada joylardagi masalalarni samarali hal etishda mahalliy hokimliklarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, jamoatchilik oldidagi hisobdorligini oshirish, hokimlar saylovining huquqiy asoslarini yaratish, hududlarda ijro organlari shtat birligi va tuzilmalarini belgilash amaliyotini kengaytirish, "vakolatlar reestri"ni shakllantirish, axborot texnologiyalarini keng joriy qilish, 40 dan ortiq geoportalni



ishga tushirish bilan bog'liq muhim chora-tadbirlar o'z ifodasini topgan.

Ma'lumki, majoziy qilib aytganda, yaqin-yaqingacha davlat idoralari va xalq o'rtasida katta jarlik bor edi. Davlat idoralari odamlarning hayotiy muammolari bilan deyarli qiziqmas, yuqoridan aytilgan buyruqlarni bajarish bilan band edi. Qolaversa, davlat xizmatlari ko'rsatishda korrupsiya avj olgandi.

Shunisi quvonarliki, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak", degan muhim tamoyil hayotda o'z aksini topishi natijasida bugun bu boradagi vaziyat butkul o'zgardi. Davlat organlari faoliyatini xalq bilan muloqot qilish, har bir ishni xalq fikri, talabi va xohish-istagidan kelib chiqib tashkil etishga qaratmoqda.

Taraqqiyot strategiyasida belgilangan yangicha tamoyillar esa bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirishga zamin bo'ladi. Xususan, to'rtinchi maqsad — davlat boshqaruvi organlari faoliyatini "fuqaroga xizmat qilish" tamoyili asosida transformatsiya qilish borasida davlat boshqaruvi tizimi qayta ko'rib chiqiladi, ya'ni tashkil etish va tugatish tartiblari, mezonlarini nazarda tutuvchi huquqiy mexanizmlar ishlab chiqiladi. Shuningdek, davlat boshqaruvi organlarining shtatlar birliklarini oshirishga cheklovlar o'rnatish hamda kadrlar va moddiy resurslardan foydalanish mezonlarini belgilash nazarda tutilgan.

Vazirlik va idoralarga o'z vakolatiga kiradigan masalalarni hal qilishda ko'proq mustaqillik berish, shu bilan birga, ularning ijro intizomini kuchaytirish orqali beshinchi maqsad — ixcham, professional, adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat

qiladigan davlat boshqaruvi tizimini joriy qilish ko'zda tutilgan.

Davlat boshqaruvi tizimida ma'muriy apparatni ixchamlashtirish va ish jarayonlarini maqbullashtirishni nazarda tutuvchi oltinchi maqsad ham samarali boshqaruv tizimini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqsadga erishish borasida ayrim davlat funksiyalarini xususiy sektorga o'tkazishni 3 barobarga oshirish, shuningdek, davlat bosh-qaruvini nomarkazlashtirish va ochiqligini ta'minlash ko'zda tutilgan.

Mamlakatimizda kechayotgan islohotlarni izchil davom ettirishda yettinchi maqsad — Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalarning rolini yanada oshirish Taraqqiyot strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu borada ichki va tashqi siyosatga oid muhim vazifalarni hal etishda vakolatlarini kengaytirish, qonunlarning so'zsiz ijro etilishida parlament nazorati institutidan foydalanishni kuchaytirish, qonun ijodkorligi va parlament nazoratida keng jamoatchilik bilan bamaslahat ish olib borish belgilangan.

Shuningdek, davlat byudjeti tashkilotlariga aniq strategik vazifalar qo'yish, ularga so'rov yuborish amaliyoti joriy qilinadi. Hududlar bilan to'g'ridan-to'g'ri, shu jumladan, masofaviy ishlashni joriy qilish, hududlarni rivojlantirish masalalarida joylardagi deputat va senatorlarning ishtirokini kuchaytirish belgilangan.

Bu borada belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirishda elektron parlamentni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bu yo'nalishda Senatning mahalliy Kengashlar bilan faoliyati to'liq elektronlashtiriladi.

Senator va deputatlar qonunlarni ko'rib chiqishdan tashqari, ular asosiy ishini



joylarda o'zi saylangan okruglarda tashkil qiladi. Bu borada norma ijodkorligi jarayonini modernizatsiya qilish, qonunlarning qat'iy ijrosini ta'minlash, deb belgilangan sakkizinchi maqsad doirasida O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligini rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqiladi. To'qqizinchi — "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarining ulushini 100 foizga yetkazish hamda byurokrtiyani bartaraf etish maqsadi doirasida davlat xizmatlarini raqamlashtirish borasidagi ishlar yanada jadallashtiriladi.

Mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatish kengaytiriladi hamda ularning 20 foizi xususiy sektorga o'tkaziladi. Davlat xizmatlarini ko'rsatishda shaxsni identifikatsiya qilishning Mobile ID tizimi joriy qilinadi, "Elektron hukumat" tizimi orqali davlat organlari hamda xususiy tashkilotlar o'rtasida ma'lumot almashinuvi yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, keksa va nogironligi bo'lgan shaxslarga davlat xizmatlarini ko'rsatish soddalashtiriladi, "Fuqarolarning raqamli pasporti" loyihasini joriy qilish orqali boshqa tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilish amaliyotidan voz kechiladi.

Davlatning asosiy funksiyalari markazdan elektron hukumatni rivojlantirish orqali elektron davlat xizmatlari ulushini hozirgi 54 foizdan 100 foizga oshirish va davlat xizmatlari qamrovini kengaytirish orqali xizmat ko'rsatuvchi hududlarga o'tkaziladi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi hamkor xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar, butun jahon hamjamiyatida katta qiziqish uyg'otmoqda. Bir qator nufuzli xorijiy va xalqaro ekspertlar tomonidan O'zbekistonda Prezident

Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan keng qamrovli va shiddatli islohotlar samaralari e'tirof etilgan holda, ushbu yangi tarixiy hujjatning loyihasigayoq yuksak baholar berildiki, ulardan ayrimlariga to'xtalamiz.

Parlamentlararo Ittifoq Bosh kotibi -Martin Chungong Prezident Shavkat Mirziyoyevning milliy parlamentlarning rolini oshirishga qaratilgan xalqaro tashabbuslarini to'la qo'llab-quvvatlashi haqida bayonot berdi.

Xalqaro "Diva International" jurnali bosh muharriri Marit Foss esa, Prezident Shavkat Mirziyoyev o'zini tom ma'nodagi demokrat sifatida namoyon etayotganiga e'tibor qaratgan. Xalqaro ekspert qayd etishicha, O'zbekiston Prezidentining asosiy maqsadi — inson qadrini ta'minlash. Bu, o'z navbatida, inson huquqlarini himoya qilishni anglatadi. Mamlakatda nomarkazlashtirish siyosati olib borilayotgani, ya'ni markaziy davlat organlarining ayrim muhim vakolatlari mahalliy hokimiyat idoralariga o'tkazilayotgani to'g'ri va oqilona yo'ldir.

Fransiyaning "Newly" onlayn nashri yozishicha, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi mamlakat milliy taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab beradi. Ayniqsa, "inson — jamiyat — davlat" ustuvor tamoyili jamiyatda ijtimoiy muhitni tubdan o'zgartirishning muhim mezoniga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi davlat boshqaruv tizimida kutilayotgan ijobiy o'zgarishlarga hamda mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni modernizatsiya qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022-yil. – B.84.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni.
3. Norboyeva T.K. Xalqparvar davlat islohotlari adolatli va obod yashash yo'lidagi katta qadamlar bilan qadrlanadi. Maqola. 2022-yil 28-yanvar. <https://yuz.uz/uz/news/xalqparvar-davlat-islohotlariadolatli-va-obod-yashash-yolidagi-kattaqadamlar-bilanqadrlanadi>.
4. Safoyev S.S. Uzbekistan's development strategy. Maqola. 2022-yil 10-may. http://www.koreaherald.com/view.php?ud=20220509000622&ACE_SEARCH=1
5. Saidov A.X. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi — Inson qadrini ulug'lagan xalqchil bosh dastur. Maqola. 2022-yil 28-yanvar. <https://yuz.uz/uz/news/xalqparvar-davlat-islohotlariadolatli-va-obod-yashash-yolidagi-kattaqadamlarbilanqadrlanadi?view=yangi-ozbekiston-taraqqiyot-strategiyasi--inson-qadrini-uluglagan-xalqchil-bosh-dastur>